

Toshkent davlat yuridik universitetini strategik rivojlantirish dasturlari ijrosi yuzasidan ma'lumot

*(universitet kengashining 2024-yil 27-maydagi 13-son hamda 2024-yil 26-dekabrdagi 9-son
bayonnomalari bilan tasdiqlangan)*

2024-yil dekabr oyi holatida

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Toshkent davlat yuridik universitetini strategik rivojlantirish dasturi hamda uni amalga oshirish yuzasidan tasdiqlangan “Yo'l xarita” universitet faoliyatini tashkil etishda asosiy nazorat hujjatlaridan biri hisoblanadi. Mazkur “Yo'l xarita” jami 50 ta asosiy band va 191 ta kichik bandlardan iborat bo'lib, unda universitetni izchil rivojlantirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilangan.

“Yo'l xarita” ijrosi yuzasidan alohida nazorat tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, topshiriqlarning bajarilish holati muntazam ravishda monitoring qilib borilgan. Mas'ul ijrochilar ijro intizomi bo'yicha doimiy ravishda ogohlantirib borilgan hamda bajarilish holati yuzasidan universitet rektoriga tegishli ma'lumotlar kiritib borilgan. Shu bilan birga, rektor huzurida mazkur hujjat ijrosiga bag'ishlangan yig'ilishlar tashkil etilib, belgilangan muddatlarda bajarilmayotgan topshiriqlar tanqidiy muhokama qilingan va mas'ul ijrochilarga kamchiliklarni qisqa muddatlarda bartaraf etish yuzasidan aniq topshiriqlar berilgan.

Mazkur masala universitet kengashi darajasida ham muntazam ko'rib chiqilgan. Jumladan, 2022-yil 1-iyul, 2022-yil 31-oktyabr, 2022-yil 28-dekabr, 2023-yil 29-may, 2023-yil 28-dekabr hamda 2024-yil 27-may kunlari bo'lib o'tgan universitet kengashi yig'ilishlarida “Yo'l xarita” ijrosi muhokama qilinib, uning samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilingan.

Tashkiliy-nazorat va strategik rejalashtirish boshqarmasi tomonidan 2024-yil dekabr oyi holatiga ko'ra “Yo'l xarita” ijrosi yuzasidan tahlil o'tkazildi. Tahlil natijalariga ko'ra, 2024-yil dekabr oyiga qadar jami 185 ta topshiriq bajarilishi belgilangan bo'lib, shundan 169 tasi to'liq bajarilgan, 2 ta topshiriq (yo'l xaritaning 50.1 va 50.2 bandlari) ijrosi bajarilmaganligi aniqlangan.

Qayd etilishicha, mazkur topshiriqlarni amalga oshirish yuzasidan tanlov o'tkazilib, tegishli tizimni yaratish vazifasi Codetech kompaniyasiga yuklatilgan. Biroq, kompaniya tomonidan shartnoma majburiyatlari bajarilmaganligi sababli ushbu topshiriqlar ijrosi ta'minlanmagan. Mazkur holat yuzasidan universitet tomonidan belgilangan tartibda sudga murojaat qilingan va tegishli choralar ko'rilmogda.

Shuningdek, “Yo‘l xarita”da muntazam ijro etilishi belgilangan 14 ta topshiriq o‘z vaqtida bajarilgan hamda hozirgi kunda doimiy ijro jarayonida amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, Toshkent davlat yuridik universiteti Kuzatuv kengashining 2023-yil 8-noyabrdagi 5-sonli bayonnomasi bilan “Toshkent davlat yuridik universitetining 2023–2030-yillarga mo‘ljallangan strategik rivojlanish dasturi (konsepsiyasi)” tasdiqlangan bo‘lib, mazkur dastur ijrosi ham alohida nazoratga olingan. Hozirgi kunda ushbu strategik dastur doirasida 2025-yilda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar bo‘yicha yo‘l xaritasi loyihasini ishlab chiqish yuzasidan tashkiliy ishlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2023-yil 22-dekabrdagi 20/23-son hay‘at qarori bilan 2024–2030-yillarga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlar (indikatorlar) hamda 2024-yilga mo‘ljallangan yo‘l xaritasi tasdiqlangan. Joriy yil davomida ushbu maqsadli ko‘rsatkichlar va yo‘l xaritasining bajarilish holatidan kelib chiqib, ular yangi tahrirda qayta ko‘rib chiqilgan.

Mazkur yo‘nalishda universitetga yuklatilgan vazifalar ijrosi yuzasidan choraklik hisobotlar muntazam ravishda taqdim etib borilmoqda. Biroq, 2024-yilning uchinchi choragi yakunlari bo‘yicha vazirlik hisobotida universitet tomonidan ayrim maqsadli ko‘rsatkichlarga to‘liq erishilmaganligi qayd etilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, universitetda “Yo‘l xarita” va strategik dasturlar ijrosini ta‘minlash, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish hamda maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish bo‘yicha ishlarni yanada kuchaytirish zarur. Xususan, mas‘ul ijrochilar tomonidan topshiriqlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi ustidan nazoratni kuchaytirish, ijro intizomiga qat‘iy rioya etish hamda belgilangan vazifalarga yanada mas‘uliyat bilan yondashish muhim ahamiyat kasb etadi.

2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Toshkent davlat yuridik universitetini strategik rivojlantirish dasturi doirasida tasdiqlangan “Yo‘l xarita” asosida universitetda keng ko‘lamli tizimli islohotlar amalga oshirildi. Mazkur islohotlar universitet faoliyatining barcha yo‘nalishlarini qamrab olgan bo‘lib, ta‘lim sifatini oshirish, boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, akademik muhitni yaxshilash hamda raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qilmoqda.

Avvalo, universitetda akademik erkinlikni ta‘minlash va rivojlantirish borasida muhim natijalarga erishildi. Akademik halollik va tadqiqot etikasi kodeksi ishlab chiqilib, universitet kengashi tomonidan tasdiqlandi hamda amaliyotga joriy etildi. Professor-o‘qituvchilarga o‘z mutaxassisligi bo‘yicha o‘quv dasturlarini mustaqil ishlab chiqish imkoniyati yaratildi, ularning ortiqcha yuklamalari qayta ko‘rib chiqilib, qisqartirildi. Natijada ta‘lim jarayonining sifati va samaradorligi sezilarli darajada oshdi.

Akademik halollikni ta'minlash yo'nalishida ham muhim ishlar amalga oshirildi. Universitetda plagiatga qarshi murosasiz muhit shakllantirilib, Turnitin tizimi orqali ilmiy va o'quv ishlari muntazam tekshiruvdan o'tkazilmoqda. Talabalar va professor-o'qituvchilar o'rtasida akademik halollik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha tizimli targ'ibot ishlari olib borilmoqda.

Ta'limda tenglik, inklyuzivlik va xilma-xillikni ta'minlash masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Nogironligi bo'lgan hamda ko'rish yoki eshitishda nuqsoni mavjud talabalar uchun qulay infratuzilma yaratildi, maxsus yo'l ko'rsatkichlar, texnik vositalar va moslashtirilgan o'quv muhitlari tashkil etildi. Axborot-resurs markazida Brayl yozuvidagi kitoblar, audio materiallar hamda maxsus dasturiy ta'minotlar joriy qilindi.

Talabalar va xodimlarning ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida ko'plab ijtimoiy loyihalar, tanlovlar va tadbirlar tashkil etildi. Talabalarning tashabbuslari qo'llab-quvvatlanib, ularni rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yildi. Yuridik klinika faoliyati raqamlashtirilib, aholiga bepul huquqiy yordam ko'rsatish tizimi takomillashtirildi. Street Law loyihasi va boshqa tashabbuslar orqali jamiyat bilan o'zaro aloqalar mustahkamlandi.

Universitet bitiruvchilari bilan samarali hamkorlikni rivojlantirish borasida ham sezilarli natijalarga erishildi. Alumni platformasi ishga tushirilib, bitiruvchilar assotsiatsiyasi va maqsadli kapital fondi faoliyati yo'lga qo'yildi. Bitiruvchilar ishtirokida grantlar, stipendiyalar va investitsion loyihalar amalga oshirildi, shuningdek, muntazam uchrashuvlar va ilmiy-amaliy tadbirlar tashkil etildi.

Universitet boshqaruv tizimini zamonaviy standartlar asosida transformatsiya qilish yo'nalishida Akademik halollik kengashi va Tadqiqot etikasi kengashi tashkil etildi. Ta'lim sifati nazoratini kuchaytirish maqsadida maxsus guruhlar faoliyati yo'lga qo'yildi. Universitet boshqaruvi va xizmat ko'rsatish tizimi "yagona darcha" tamoyili asosida tashkil etilib, talabalar uchun qulay sharoitlar yaratildi.

Raqamlashtirish yo'nalishida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Universitetda "Elektron universitet" tizimi joriy etilib, o'quv jarayonlari, baholash tizimi, dars jadvali va talabalar reytingi to'liq elektron shaklga o'tkazildi. Digital platformalar orqali imtihonlar, tahlillar va boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatlari kengaydi. Shuningdek, marketing va shartnomaviy jarayonlar ham elektronlashtirildi.

Kadrlar siyosatini takomillashtirish maqsadida zamonaviy HR tizimi joriy etilib, xodimlar faoliyati KPI asosida baholash tizimi yo'lga qo'yildi. Professor-o'qituvchilarni rag'batlantirish mexanizmlari takomillashtirildi hamda kadrlarni tanlash va rivojlantirish tizimi yaxshilandi.

Ta'limning amaliy yo'nalishini kuchaytirish borasida yuridik kadrlar buyurtmachilari bilan hamkorlik kengaytirilib, Proflegal.uz platformasi orqali

talabalar va bitiruvchilarning bandligini ta'minlash tizimi yaratildi. Mehnat yarmarkalari, uchrashuvlar va amaliy mashg'ulotlar orqali talabalar real ish muhitiga yaqinlashtirildi. Bitiruvchilarning bandlik darajasi yuqori ko'rsatkichlarga erishdi.

Shuningdek, yuridik ta'limning amaliyotga yo'naltirilgan modelini joriy etish, yuridik ta'lim klasterini shakllantirish hamda yangi ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarni ochish bo'yicha muhim ishlar amalga oshirildi. Zamonaviy kampus loyihalari doirasida amaliy mashg'ulotlar uchun maxsus infratuzilma yaratish rejalashtirilmoqda.

Mazkur amalga oshirilgan ishlar natijasida Toshkent davlat yuridik universitetida zamonaviy, ochiq va samarali ta'lim tizimi shakllantirildi. Universitetning ilmiy, ta'limiy va tashkiliy salohiyati sezilarli darajada oshib, uning milliy va xalqaro nufuzi mustahkamlandi.